

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar

Avvalambor, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish deganda - pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo‘lsa, ularni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag‘larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashlilikini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo‘lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Jinoyatning obyektivi respublika iqtisodiy faoliyatining manfaatlari, jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Obyektiv tomondan esa jinoyat yuqorida ko‘rsatilganidek, noqonuniy topilgan daromadlar o‘tkazish, aylantirish, almashtirish va boshqa usullar orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ta’sir ko‘rsatadigan murakkab jarayon bo‘lib, unga qarshi kurash choralariga, jumladan, ushbu salbiy hodisaning oldini olishga qo‘yiladigan talablarni sezilarli darajada oshiradi. O‘z navbatida, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni huquqiy ta’minlash moliyaviy, bank, bojxona munosabatlarini tartibga soluvchi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida kompaniyalarni litsenziyalash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini belgilovchi qonunlar va qonunosti hujjatlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Ko‘pgina mamlakatlarda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy chora-tadbirlar uchun o‘ziga xos asos bo‘lib xizmat qiluvchi “namunali” qonunlar mavjud. Jumladan, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish sohasi hozirgi paytda 2004-yil 26-avgustdagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida” qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-sentabrdagi Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo‘yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ-3947-sonli qarori hamda boshqa ushbu sohada normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib kelinmoqda.

Zero, ushbu masalada Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh (Financial Action Task Force on Money Laundering — FATF) 2020-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurishi va baholashi ham muhim kasb etdi. Ushbu o‘zgarihlardan so‘ng Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 28-iyunda qabul qilingan PF-6252-son farmoniga ko‘ra, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Unga muvofiq, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar ro‘yxati belgilandi, har uch yilda bir marta milliy darajada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni baholash tartibi joriy qilindi hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining axborotni to‘plash va unga ishlov berish bo‘limi negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Xavflarni baholash markazi tashkil qilinib, uning asosiy vazifalari belgilab qo‘yildi.

**Korporativ xavfsizlik va resurslarni
himoya qilish departamenti
direktori A.N.Shomesov**